

2026-yil 2-mart

“O'zkimyosanoat” AJda Vengriyaning Obuda universiteti delegatsiyasi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi



“O'zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi hamda Vengriyaning nufuzli texnik oliy ta'lim muassasalaridan biri — Obuda universiteti rektori boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Muloqot chog'ida ta'lim, ilm-fan va sanoat o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash va zamonaviy innovatsion yechimlarni ishlab chiqarish jarayonlariga keng joriy etish masalalari atroflicha muhokama qilindi.



Suhbat davomida “O‘zkimyosanoat” AJ tizimidagi ishlab chiqarish quvvatlari va mineral-xomashyo bazasini hisobga olgan holda qo‘shma ta‘lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish, mutaxassislar malakasini oshirish, talabalar uchun amaliyot va stajirovka dasturlarini tashkil etish bo‘yicha takliflar ilgari surildi.



Uchrashuv yakunida tomonlar o‘zaro manfaatli hamkorlikni aniq loyihalar asosida rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, uzoq muddatli sheriklik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish yuzasidan yakdil fikr bildirdilar.



source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-ajda-vengriyaning-obuda-universiteti-de-legats>